

YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH KONSEPSIYASI

Ubaydullayev Saidakbar Saydaliyevich

Farg`ona davlat universiteti Harbiy ta`lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, yoshlarning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining tashkiliy huquqiy asosi yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Mudofaa to'g'risida»gi Qonun, «Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonun, "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash" Konsepsiysi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi, Vatanga Qasamyod, Umumharbiy nizomlar va davlat idoralari, vazirliklarining bu sohadagi me'yoriy hujjatlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2014 yil 18-dekabrdagi 348-sonli "O'zbekiston Respublikasi Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi qarori tasdiqlangan. Mazkur qarorning ilovasiga binoan, "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom ishlab chiqilgan.

Kalit so`zlar: Vazirlar mahkamasi, Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, hujjatlar, Mudofaa doktrinasi, Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, nizomlar, qarorlar.

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldag'i 140-sun qaroriga

1-ilova

1-bob. Umumiylar qoidalar

1. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiysi (keyingi o'rinnlarda konsepsiya deb ataladi) mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlari va asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo'llari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, talim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o'zaro hamkorligini hisobga olgan holda belgilab beradi.

2. Mazkur konsepsiyada Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga jismonan va manan sog'lom avlodni tarbiyalashga oid yaxlit talim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralib, O'zbekiston Respublikasi 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablari asosida milliy va jahondagi ilg'or tajribalar, bugungi O'zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida etibor qaratildi.

3. Ona Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog'liq eng muhim tushunchalar, hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-marifat asosida Yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish orqali O'zbekistonning haqiqiy vatanparvar fuqarolarini tarbiyalash Konsepsiyaning asosiy mazmunini tashkil etadi.

4. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – bu millati, tili va kasbidan qatiynazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarning ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

2-bob. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi va asosiy vazifalari.

5. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi Yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo'lган davlat xizmati turlarida faoliyot ko'rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak masuliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

6. Quyidagilar yoshlarni harbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafla va muqaddas burch ekanini chuqr singdirish;

qadimiylar tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaq yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lган ishonchni kuchaytirish;

milliy armiyamizga jismonan baquvvat va manan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

Yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

har qanday murakkab vaziyatda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega Yoshlarni tarbiyalash;

O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish-bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va tasirchan vositalar orqali Yoshlar ongiga singdirib borish.

3-bob. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi va uning asosiy prinsiplari.

7. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi uzlusiz jarayon bo'lib, u bir-biriga bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy tadbirlar majmuasidan iborat.

8. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Qurolli Kuchlarning Umumharbiy nizomlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq olib boriladi.

9. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari muntazam ravishda tizimli va ilmiy asosda tashkil etiladi.

10. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi quyidagilardan iborat:

ta'lif-tarbiya jarayonida ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga molik qadriyatlarni, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan maktabgacha ta'lif, umumiyo'rta ta'lif, kasb-hunar talimi va oliy ta'lif muassasalari;

11. Quyidagilar Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy prinsiplari hisoblanadi;

ilmiylik;

tarixiylik;

aniqlik va tezkorlik;

muntazamlik;

faollik;

ta'lif va tarbiya ishlarining uyg'unligi;

tarbiya jarayonining izchilligi;

harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2003 yil 24 mart.
2. A.O'Imasov, M.Sharifxojaev. Iqtisodiyot nazariyasi. T. 1995 y.
3. .A.O'Imasov, A. Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: Sharq. 2006.
4. D.Tojiboeva. Iqtisodiyot nazariyasi. I-qism. T. 2002.
5. D.Tojiboeva. Iqtisodiyot nazariyasi. II-qism. T. 2003.
6. N. Beknozov. Iqtisodiyot nazariyasi. / /Darslik. - T. 2005 y. 14. U.Umarov. Iqtisodiyot nazariyasi. / /O'quv qo'llanma. T.: Meros. 2004.
7. Sh. Shodmonov, R.Alimov, T.Jo'raev Iqtisodiyot nazariyasi. T. 2002.
8. Sh. Shodmonov, U.V.G'afurov. Iqtisodiyot nazariyasi. T. 2005 y.
9. Экономика Узбекистана. Информационно-аналитический обзор за 2005 год. Т.:Узбекистан. 2006.
10. Lex.uz-sayti.

